

Mundarija

1.	Qo'shish va ayirishga doir sodda masalalar	4
2.	Ko'paytirish va bo'lishga doir sodda masalalar	23
3.	To'rt amalga doir sodda masalalar	34
4.	Raqamlar va natural sonlar	46
5.	Xona birliklari	57
6.	Uzunlikka doir masalalar	70
7.	Og'irlikka doir masalalar	83
8.	Vaqtga doir masalalar	94
9.	Hafta kunlari va kalendar	104
10.	Yoshga doir masalalar	114
11.	Natural sonlarni taqqoslash	123
12.	Natural sonlarni yaxlitlash va sonlar o'qi	139
13.	Harakatga doir masalalar	151
14.	Qoldiqli bo'lish.	169
15.	Yig'indiga doir masalalar yechish	180
16.	Ayirmaga doir masalalar yechish	192
17.	Ko'paytma va bo'linmaga doir masalalar yechish	198
18.	Qism topishga doir masalalar	206
19.	Oddiy kasrlar	219
20.	Geometrik shakllar	231

Quyidagi QR kod orqali “Yosh iqtidor” telegram botimizga ulanib, mavzulardagi misol va masalalarning javoblarini olishingiz mumkin.



Kitoblarimizga buyurtma berish uchun quyidagilarga murojaat qiling:



(99) 968 44 00



@IDC_books

1. QO'SHISH VA AYIRISHGA DOIR SODDA MASALALAR


- 10) Quyidagi keltirilgan 1-kalkulyatorda Yunus "423+491=" tugmalarini bosish orqali qo'shishni bajaradi. Uning raqamlarni bilmaydigan ukasi Ali esa ikkinchi kalkulyatorida Yunus bosgan tugmalar bilan bir xil o'rinda turgan tugmalarni bosdi. Uning ukasi tomonidan topilgan natija bilan Yunusning natijasi orasidagi farq nechaga teng?



- A) 12 B) 22 C) 27 D) 15
- 11) Rasmdagi barcha doiralarda yozilgan sonlar yig'indisi 39 ga teng. Sariq rangli doiralarga yozilgan sonlar yig'indisi bilan, yashil rangli doiralarga yozilgan sonlar yig'indisi o'zaro teng. Ko'k rangli doira ichidagi sonni toping.




- A) 1 B) 3 C) 5 D) 7
- 12) Quyida berilgan yig'indilardan qaysi biri boshqasidan katta?
 A) $2+0+24+20+2+5$ B) $20+24+2+0+2+5$ C) $202+4+20+25$ D) $20+242+0+2+5$
- 13) Har bir akvariumda 4 tadan raqam yozilgan sharlar bor. Qaysi akvariumdagi raqamlar yig'indisi eng katta?



11. NATURAL SONLARNI TAQQOSLASH

- 19 (*) Quyida berilgan 7 ta rangli to'g'ri to'rtburchaklarning har biri qandaydir noldan farqli raqamni bildiradi. Bunda bir xil rangli to'g'ri to'rtburchaklar bir xil raqamni, har xil rangli to'g'ri to'rtburchaklar esa har xil raqamni anglatadi. Nodir, Sardor, Hoshim va Erkin qaysi rangli to'g'ri to'rtburchaklar qanday raqamni anglatishini bilmagan holda yetti xonali sonlarni hosil qilishdi. Bu bolalarning qaysi biri hosil qilgan son bu raqamlar yordamida hosil qilish mumkin bo'lgan eng katta yetti xonali son bo'la olmaydi?



- A) Nodir B) Sardor C) Hoshim D) Erkin

- 30 (*) Nodir 1 dan 2024 gacha bo‘lgan sonlarni quyida berilgan katakchalarga ma’lum qonuniyat asosida yozyapti. Javoblarda berilgan qaysi sonlar qo‘shni katakchalarda bo‘la olmaydi?

1	2	3	4	
	8	7	6	5
9	10	11	12	
	16	15	14	13
...		...		

A)	B)	C)	D)
1334	1467	1944	725
1340	1468	1943	727

- 31 (*) Quyidagi rasmda rangli jadvalning bir qismi ko‘rsatilgan. Bu jadvalga 1 dan 600 gacha bo‘lgan natural sonlar ma’lum qonuniyat asosida joylashtirilgan. Quyida berilgan tasdiqlarning qaysilari to‘g‘ri?

1	2	3	4	5	6
7	8	9	10	11	12
13	14	15	16	17	18
19	20	21	22	23	24
...

- A) 226 soni yashil rangli katakda joylashgan.
 B) 333 soni sariq rangli katakda joylashgan.
 C) jadvaldagi 29-qatordagi oq rangli kvadratda 172 soni joylashgan.
 D) jadvaldagi 40-qatorda joylashgan sariq va ko‘k rangli kvadratlardagi sonlar yig‘indisi 473 ga teng.


13. HARAkatGA DOIR MASALALAR

13. Harakatga doir masalalar

1-6 Berilgan tezlik va vaqt bo'yicha masofani topish.

Sinf ishi


- 1 Nodir bolalar maydonchasida joylashgan rangli oltiburchaklar ustida o'ynamoqda. Nodir har qadamda bir olti burchakdan unga qo'shni bo'lgan oltiburchakka o'tadi va ortga qaytmaydi. Agar Nodir 1 soniyada 2 ta qadam tashlasa, 7 soniyadan keyin u qanday rangli oltiburchak ustida bo'ladi?




- 2 Qurbaqa har sakraganda 15 cm masofa bosib o'tadi. U 12 marta sakraganda qancha masofa bosib o'tadi?
- 3 Tovush havoda bir sekundda 330 metr masofaga tarqaladi. 3 sekundda tovush necha metr masofaga tarqaladi?
- 4 Mashina soatiga 45 km tezlikda harakatlansa, 5 soatda qancha masofani bosib o'tadi?
- 5 Poyezd daqiqasiga 1100 metr tezlikda harakatlanyapti. U shunday o'zgarmas tezlikda 3 soatda necha km masofani bosib o'tadi?
- 6 Karvon 1-kuni soatiga 9 km tezlik bilan 8 soat yo'l yurdi. 2-kuni esa soatiga 7 km tezlik bilan 6 soat yo'l yurdi. Karvon 2 kunda hammasi bo'lib qancha masofa yurgan?

13. HARAkatGA DOIR MASALALAR


- 24 Nodir va Sardor bir vaqtda piyodalar o'tish yo'lagidan o'ta boshladilar. Nodir har soniyada uchta chiziqni, Sardor esa har soniyada to'rtta chiziqni bosib o'tadi. Ular nechanchi chiziqda uchrashadilar?



- 25 Asalari Maya va uning do'sti rasmda ko'rsatilgan chiziq bo'ylab yurib kelmoqda. Maya soniyasiga 1 ta kesmani, uning do'sti esa 3 ta kesmani bosib o'tadi. Ular qaysi nuqtada uchrashadilar?



- 26 Ikki shahardan bir-biriga qarab yengil mashina va yuk mashinasi yo'lga chiqdi. Yengil mashinaning tezligi 60 km/soat, yuk mashinaning tezligi esa 45 km/soat. Ular 3 soatdan keyin uchrashgan bo'lsalar, shaharlar orasidagi masofani toping.



1. QO'SHISH VA AYIRISHGA DOIR SODDA MASALALAR


Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashqlar

- 1 Anvarning 2 xil rangli sharlari, Sobirning esa 3 xil rangli sharlari bor.



Sardor: "Demak, ularda jami $3+2=5$ xil rangli sharlari bor ekan,"-dedi.
Sardor qanday xatolikka yo'l qo'ydi?

- A) U xato qilmagan.
B) U qo'shishda xato qildi.
C) U Anvarni ham Sobirni ham tanimaydi.
D) U Anvar va Sobirning bir xil rangli sharlari bo'lishi mumkinligini inobatga olmadi.
- 2 Rasulbekning uyidan maktabgacha bo'lgan masofa 800 metr. Bir kuni u ertalab soat 7:00 da uyidan chiqib, 300 metr masofa yurdi.
Jamshid: "Demak, Rasulbek hozir maktabidan $800-300=500$ metr masofa uzoqlikda turibdi,"-dedi



Quyidagilardan qaysi biri Jamshid qilgan xatolikni ko'rsatib bera oladi?

- A) Rasulbekning darslari ertalab emas, balkim peshin vaqtdan keyin boshlanadi.
B) Bugun yakshanba bo'lishi mumkin, ya'ni bu kunda maktab darslari bo'lmaydi.
C) Rasulbek maktabidan boshqa tomonga qarab yurgan bo'lishi mumkin.
D) U ayirishda xato qildi.
E) Jamshid hech qanday xato qilmadi.

2. KO'PAYTIRISH VA BO'LISHGA DOIR SODDA MASALALAR

Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashqlar

1 Quyidagi doskada misol yozilgan:



Sardor: "Doskadagi misolning natijasini toq son yoki juft son ekanligini aniqlash uchun ko'paytirishni bajarish shart emas",-dedi.

Quyidagilardan qaysi biri Sardorning fikrini asoslab bera oladi?

- A) 15 ni har qanday songa ko'paytirganda juft son hosil bo'ladi.
- B) 15 ni har qanday songa ko'paytirganda toq son hosil bo'ladi.
- C) juft son ishtirok etgan har qanday amal natijasi juft son bo'ladi.
- D) juft sonni toq songa ko'paytirganda natija juft son bo'ladi.
- E) Sardor ko'paytirishni bilmagani uchun shunday fikrlayapti.

2 3 ta idishda jami 36 ta konfet bor.





Davron: "Demak har bir idishda $36:3=12$ tadan konfet bor ekan",-dedi.

Davron qanday xatoga yo'l qo'ydi?


- A) U bo'lishni xato bajardi.
- B) U har bir idishdagi konfetlar sonini teng deb o'yladi.
- C) U konfetlarning turlari har xil bo'lishi mumkinligini e'tiborga olmadi.
- D) U hech qanday xato qilmadi.
- E) Ko'p konfet iste'mol qilish tishlar uchun zararli bo'lishi mumkin. Shuning uchun ularni me'yorida iste'mol qilish kerak.

- 5 Quyida berilgan kvadratda ba'zi kataklar sariq rangga bo'yalgan. Agar bu kvadratda barcha sariq rangli kvadratlar oq rangga, barcha oq rangga bo'yalgan kvadratlar sariq rangga bo'yalssa, javoblarda berilgan qaysi shakl hosil bo'ladi?




- 6 Rasmdagi shakllardan biri haqida quyidagicha ma'lumotlar berilgan:

- Bu shakl uchburchak emas:
 - Uning barcha tomonlari teng:
 - Shakllar orasida u bilan bir xil rangli faqatgina 1 ta shakl bor.
- Bu shakl ichida qaysi harf yozilganini aniqlang.




- 7 Quyida berilgan shakllarning nechtasini bitta to'g'ri chiziq bilan 2 ta to'rtburchakka ajratish mumkin?



Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashqlar

1




Maqsud: “Agar biror-bir to`rtburchakning qarama-qarshi tomonlari teng bo`lsa, u holda bu to`g`ri to`rtburchak bo`lar ekanda”,-dedi.

Sardor: “Agar to`rtburchakning qarama-qarshi tomonlari teng bo`lmasa, u holda bu to`g`ri to`rtburchak bo`la olmaydi”,-dedi.

Kimning fikri to`g`ri?

- A) Faqat Maqsudniki B) Faqat Sardorniki
C) Ikkalasini ham to`g`ri D) Ikkalasini ham noto`g`ri.

2 Uchburchakni bitta to`g`ri chiziq orqali ikkita to`rtburchakka ajratib bo`lmaydi.



Jamshid: “Agar shaklni bitta to`g`ri chiziq bilan uni ikkita to`rtburchakka ajratib bo`lmasa, u holda bu shakl uchburchak bo`ladi”,-dedi.

Xurshid: “Agar shaklni bitta to`g`ri chiziq bilan uni ikkita to`rtburchakka ajratib bo`lsa, demak bu shakl uchburchak emas”,-dedi.

Kimning fikri to`g`ri?

- A) Faqat Jamshidniki B) Faqat Xurshidniki
C) Ikkalasini ham to`g`ri D) Ikkalasini ham noto`g`ri.